Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukkamal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning pirovardida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu maqsadga albatta ta'lim-tarbiya orqali erishiladi. Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos jihatlari yana shundan iboratki, unda o'quv maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya maqsadi va vazifalarini shunday belgilash kerakki, unda umumiy jamiyat o'quv maqsadlari va har bir bosqichlarining aniq maqsadi va vazifalari mushtarak bog'liqligini ta'minlashi lozim. Ta'lim-tarbiyaning shuningdek, til o'rganishning kafolatlangan natijasini esa zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali amalga oshirish mumkin. Chunki, pedagogik texnologiyada ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'quv maqsadlari kutilayotgan natijaga muvofiq o'qituvchi tomonidan oldindan loyihalanadi.

O'qituvchi o'z o'quvchilarining dars jarayonidagi ilmiy – amaliy faoliyatini samarali tashkil qilish avvaldan rejalashtirilgan, aniq bir maqsadga mustaqil matn yaratishga yo'naltirish uchun har bir dars puxta rejalashtirilishi, darsni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilishi, lozim bo'lsa, yangi mashq namunalarini tanlab, qo'shimcha mashg'ulot sifatida rejaga kiritishi, darsni guruuhlararo musobaqa ruhida olib borishi nihoyatda foydalidir. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarni o'rganilgan mavzu yuzasidan o'z fikrlarini aytishga undashi, ular tomonidan kiritilgan taklif va mulohazalarni, o'z iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan urinishlarini ijobjiy tushunishi, bunday ijodkorlik, kashfiyotchilik harakatlarini muttasil rag'batlantirib borishi, ularga sharoit va imkoniyatlar yaratib berishi zarur bo'ladi.

Chet tilni o'rgatishda amaliy mashg'ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobjiy natijalarini ko'rsatmoqda. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat o'quvchitarabalgarda, balki o'qituvchiga ham ta'lim berish jarayonini yengillashtirib bermoqda. O'quv mashg'ulotlari pedagogik texnologiya tamoyillari va aniq maqsadlar asosida loyihalanganda o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarini tarkib topadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayoni amalga oshirilganda o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishi ortib, ijodiy tafakkur yuritish qibiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchida pedagog injenerlik mahorati bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri loyihalay olishi lozim. SHuningdek, chet tilida o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ular tomonidan berilayotgan savollarning ham inobatga olinishi talim jarayonining samaradorligini taminlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o'qitishda pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati talimda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Talimda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning aksariyat



ко‘рчиллик qismi puxta o‘zlashtirishi pedagogik texnologiyani joriy etishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, biz o‘z darslarimizda qo‘llayotgan har bir pedagogik texnologiyalar shuningdek, axborot texnologiyalarining samaradorligini quyidagi mezonlar orqali doimiy kuzatib va takomillashtirib borishimiz mumkin bo‘ladi:

- o‘quv materialini didaktik loyihalashda o‘quv maqsadlarini to‘g‘ri belgilash;
- ta’lim metodlari va vositalarini to‘g‘ri tanlash;

- pedagogik texnologiya turlarini o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasini inobatga olgan holda to‘g‘ri tanlash;

-o‘quvchilarning ijodiy ishlarini doimiy tashkil etish;

-o‘zlashtirish darajasini muntazam ravishda monitoringini olib borish.

Bunday turdagи faoliyat juda ham foydali va samarali hisoblanadi, chunki u o‘quvchilarning o‘z natijalarini ko‘rishga, olgan bilimlarni tizimlashtirishga, o‘qituvchiga esa keyinchalik amalga oshiradigan faoliyatni rejalashtirishga yordam beradi.

Foydalilanlgan adabiyotlar

1. Jamol Jalolov „Chet til o‘qitish metodikasi”.
2. Хўжаев Н.Х., Ходиев Б.Ю., Баубекова Г.Д., Тилабова Н.Т. Янги педагогик технологиялар.
3. Зарипова Р.А. Чет тиллар ўқитиш методикасидан қўлланма.
4. www.ziyouz.com



O'QUVCHILAR NUTQIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Salimova Maqsuda
Buxoro viloyati Olot tumani
28-son muktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq tushunchasi va o'quvchilarning nutqiga qo'yiladigan talablар keltirilgan.

Kalit so'zlar: nutq, tafakkur, fikr, dalillar, taassurot, hissiy ta'sir, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a.

Nutq – kishi faoliyatining turli, til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. "Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi. O'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga roya qilinadi:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lsin. Hikoya yoki insho o'quvchilar uchun yaxshi ma'lum bo'lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi.

2. Nutqda mantiqiylik bo'lsin. O'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinalar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga yo'l qo'ymasligi talab etiladi.

3. Nutq aniq bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

5. Nutq tushunarli bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq ifodali bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham , yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiyluhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotSIONalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida ta'sir etadi.

7. Nutq to'g'ri bo'lsin. Muktab o'quvchilari uchun nutqning adabiy til me'yorlariga mos va to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatidan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri bo'lishi uchun so'z tanlash va logikasi katta ahamiatga ega. Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ta'lim tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinci tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.
2. Umumta'lim maktablari ona tili darsliklari.
3. www.ziyouz.com



O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA INTERFAOL USULLARNING O'RNI

*Farg'ona viloyati, Farg'ona tumani
XTB ga qarashli 26-sonli o'rta ta'lif maktabi
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Xolmirzayeva Nilufar Qambaraliyevna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida qo'llanadigan qiziqarli usul va o'yinlar yoritilgan bo'lib, unda o'qituvchining o'quvchini dars jarayoniga jalb qilishiga yordam beruvchi innovatsion ta'lif samaradorligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy tafakkur, toza va xira, rolli o'yinlar, innovatsiya

Ta'lifni tashkil etishning bosh omili dars hisoblanadi. Bugungi kunda dars-shaxsga yo'naltirilgan dars bo'lishi lozim. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni o'qitish bilan chegaralanmaydi, balki o'quvchini darsga qiziqish ehtiyojini tug'diradi. Dars jarayonida o'qituvchi passiv, o'quvchi esa faol ishtirokchiga aylanadi. Bugungi kunda kim uchundir noan'anaviy sanalgan dars kimlar uchundir an'anaviy dars bo'lishi mumkin. Darslarni noan'anaviy shaklda tashkil etish uchun har bir darsga yangilik olib kirishga harakat qilish lozim. Faollik bo'lmagan joyda shaxsning qaror topishi va rivojlanishi ham bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchini darsga jalb etish uchun o'quv materialini qiziqarli qilib tushuntirishi, hayot bilan bog'lashi, amaliy ahamiyatini ko'rsata bilishi, ilg'or, interfaol usullarni qo'llashi, test, reyting orqali bilim ko'nikmalarini sinashi, ijobjiy iqlim yarata bilishi, natijalarni ko'rsata bilishi va namoyish eta olishi kerak.

Bilishning asosini amaliyot tashkil etadi. Amaliyotda qo'llanilmagan bilim hosilsiz daraxt kabitdir. Shuning uchun nazariya bilan amaliyot bog'lanmas ekan, hech qanday bilim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Maktabda olingan bilimlarni hayotda, amaliyotda qanday qo'llash mumkinligini o'quvchilarning o'zlarini bilan bajarib ko'rish lozim. Shundagina o'quvchilarda bilishga nisbatan qiziqish oshib boraveradi, ta'lif samaradorligi esa yuqori bo'ladi. O'qituvchi innovatsion usullardan foydalana bilishi va ularni amalga oshira olishi lozim. Quyidagi usul va o'yinlar maktabda tillarni o'qitilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rolli o'yinlar- O'qitishning bu usulida o'quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lган yangi turdag'i faoliyatlarini sinab ko'rish, va tekshirish imkonini beradi. Yangi turdag'i faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda; o'quvchilarni nazariyasini amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda; o'quvchilar faolligini yanada oshirishda qo'llanadi.

Afzalligi: «real hayot»ning qayta tiklanishi, o'quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi, o'quvchilarning muommoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berishi.

“Tanqidiy tafakkur” usuli o'qituvchi qo'yan masala yoki muommoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'zgalar fikrini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. O'quvchi o'z nuqtai nazarini shakillantirishga yo'naltirilgan holatlarda, o'quvchiga o'z nuqtai nazar fikrini ishlab chiqish uchun imkoniyat va fursat berilishida, o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish jarayonida qo'llanadi.

Afzalligi: O'quvchi o'z fikrini asoslaydi, ta'lif oluvchilarga erkin so'zlash imkonini beradi, barcha fikrlar erkin tahlil qilib chiqiladi.

«Har kim har kimga o'rgatadi» usuli o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi uslubidir. Bu uslubning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish. Ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishdir. Shuningdek, axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga yetkazadi. O'qituvchilarda axborot olish va berishga qiziqish uyg'otish uchun, axborotni diqqat bilan eshtish va eslab qolish uchun, sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun qo'llanadi.

Afzalligi: o'z fikrini lo'nda bayon etishi, tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi, fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi

“Toza va xira oyna” usuli - bu usuldan darsninig xulosalash qismida foydalanish mumkin. Bunda o'quvchiga bir varaq qog'oz beriladi, uni 2 bo'limga ajratib, biriga “toza”, ikkinchisiga “xira” deb nom berishi aytildi. Toza oyna tomoniga dars davomida bilib olgan tushunchalari, xira



tomoniga esa tushunishi qiyin bo‘lgan, yana qo‘srimcha ma’lumot talab qiladigan tushunchalar yoziladi. Bu usulning qo‘llanilishi o‘qituvchining ham kelgusi darsga yana qo‘srimcha ma’lumotlar bilan kelishini va mavzuni yanada soddarroq va tushunarliroq qilib tushuntirib berishini ta’minlaydi. Yuqoridaqilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni ko‘plab dars o‘tilganda sinfda qoloq, o‘zlashtirmaydigan o‘quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o‘quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darsga qiziqishlari ortadi. O‘quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlarida, hunar o‘rganishlariga imkon yaratadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.-65 b
2. Azimova “O‘zbekistonim mening” Boshlang‘ich ta’lim jurnalı 2003-yil №15 mart-aprel



SEMANTIC PECULIARITIES OF COLLOQUALISMS OF THE ENGLISH LANGUAGE

Xudoynazarova Nasiba Baxronqulovna
Teacher of English at Karshi College of Olympic Reserve

Annotation: This article provides information on the semantic features of English colloquialism.

Key words: colloquialism, language, colloquial, semantic features, words, phrases, aphorisms.

The word “colloquialism” stems from the Latin *colloquium* that means “conference” or “conversation.” Colloquialism-as a literary device- implies using informal or everyday language in literature. Colloquialisms have generally a geographic nature, as a result, every colloquial expression belongs to a regional or local dialect. Colloquial language is different from formal speech or formal writing. It is a category of language that speakers normally use when they are stress-free and not especially self-conscious. Some colloquial speech includes a large amount of slang while some has no slang at all. Slang is allowable in colloquial language without being a necessary constituent. Other examples of colloquial usage in English are contractions or swearword. In the philosophy of language, the term “colloquial language” refers to ordinary natural language that is distinct from specialized forms applied in logic or other areas of philosophy. In the field of logical atomism, meaning is appraised in a different way than with more formal propositions.

According to McCrimmon, the word “colloquial” has been defined by the American College Dictionary as “characteristic of or appropriate to ordinary or familiar conversation rather than formal speech or writing.” In his opinion, this definition does not mean that a colloquial word is improper or inappropriate or careless. McCrimmon himself calls colloquialism any word or expression that may accurately be used in conversation among educated persons. He maintains that such definition of colloquial word transforms it to a wider term than popular words or idioms covering the popular words and idiomatic constructions as well. They also include constructions that are not strictly idioms, particularly abbreviated or clipped versions of more formal words, such as ‘ad’ for ‘advertisement’.

Holmes enumerates pronunciation and grammatical features as two linguistic features of colloquial style in English:

-Pronunciation Features [h]- dropping, e.g. Oh well, ‘e said, ‘I suppose you can ‘ave it. [in] (vs. formal [ing], e.g. We was up there cuttin’).

- Grammatical Features Was with plural subject we, e.g. we was up there cutting. Come (vs. came): Frazer come on to us.

Colloquialism is classified into three sub-categories that are words, phrases, and aphorisms. If the words reflect the regional dialect of the speaker, they can be qualified as colloquialism examples, or if they are contractions or examples of swearword. Phrases and aphorisms are colloquialisms if they are not used in literal sense, nevertheless, are broadly understandable within a geographical region 1. **Words:**

- Regional differences: One well-known colloquial variance in the United States is the way an individual refers to a carbonated beverage. There are regional boundaries that isolates the usage of the words “*soda*”, “*pop*”, “*soft drink*”, and “*Coke*” (used as a generic term and not just to refer to the brand). There are many differences between American English and British English, such as *truck*”/“*lorry*”, “*soccer*”/“*football*”, and “*parakeet*”/“*budgie*”.

- Contractions: Words such as “*ain’t*” and “*gonna*” that are not used widely throughout English-speaking communities are some notable illustrations of colloquialism.

- Profanity: A set of words are deemed irreverent in some dialects of English where they are not at all immoral or swearword in other dialects. For example, the word “*bloody*” is a simple adjective in American English, but is a swearword in British English.

2. *Phrases*: The following phrases all are qualified as colloquialism:

- Old as the hills
- Penny-pincher
- She’ll be right (Australian English, meaning everything will be all right)



- Pass the buck
- Eat my dust

3. *Aphorisms*: The following aphorisms all are qualified as colloquialism:

- I wasn't born yesterday.
- There's more than one way to skin a cat.
- Put your money where your mouth is.

All these words have acquired new meanings because they are used in combinations not yet registered in the language-as-a-system. It is a well-known fact that any word, if placed in a strange environment, will inevitably acquire a new shade of meaning. Not to see this, means not to correctly evaluate the inner laws of the semantic development of lexical units. It can be concluded that there is a certain analogy between the interdependence of common literary words and neutral ones, on the one hand, and common colloquial words and neutral ones, on the other. Both sets can be viewed as being in invariant – variant relations. The neutral vocabulary may be viewed as the invariant of the standard English vocabulary.

References:

1. Будагов Р.А. Литературные языки и языковые стили.
2. Выготский Л.С. Мысление и речь.
3. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык.
4. www.ziyouz.com



ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

*Каримова Саида Абдураимовна, преподаватель
Ферганской области, Бешарыкского района Школа № 14*

Аннотация: Русский язык является одним из самых сложных языков в мире, поэтому при его изучении у иностранных обучающихся возникают некоторые трудности.

Ключевые слова: русский язык, образования, школа.

Обучение русскому языку как иностранному является очень сложным, но в то же время интересным процессом как для обучающихся, так и для преподавателя. Для успешного преподавания необходимо подробно изучить различные методики преподавания, а также учесть личностные и культурные особенности обучающихся. Важно отметить, что преподаватель иностранного языка особое внимание должен уделять именно коммуникативно-обучающей функции, что определяет важность построения учебного занятия на коммуникативно-речевой основе и позволяет ему лучше взаимодействовать с обучающимися. У иностранцев часто возникают различные проблемы при изучении русского языка, обусловленные сложностью изучаемого материала.

Однако данный вопрос также становится проблемой преподавателя, поскольку ему необходимо найти наилучший способ объяснения сложных, проблемных языковых явлений. Проблемы в изучении русского языка могут начаться на самом раннем этапе при изучении алфавита и фонетики. Обучающимся необходимо запомнить, как произносится каждая буква и каждый звук. Важно разъяснить особенности твердого и мягкого знаков, потому что они не имеют звука, а являются знаками разделительными и указывают на твердость или мягкость впереди стоящего согласного звука.

Особенности русской фонетики представляют собой большую трудность для иностранцев, поэтому преподаватель должен уделять внимание данному аспекту и регулярно проводить фонетические зарядки, фонетические диктанты, отрабатывать различные упражнения для тренировки и постановки звуков. Обучающимся необходимо научиться различать звуки на слух, поскольку существуют определенные трудности в распознавании слова по звучанию. При изучении фонетики преподаватель должен руководствоваться репродуктивным методом обучения, он должен стать образцом правильного произношения звуков, проговаривания слов. Как показывает практика работы с иностранцами, тренировка артикуляционного аппарата должна быть постоянной на начальном этапе каждого занятия по русскому языку.

Преподаватель должен показать иностранцам пример правильного чтения фразы-скороговорки, с учетом акцентологических норм, интонации, темпа и синтагматического ударения. Другой сложной проблемой при изучении русского языка как иностранного является усвоение грамматических законов и правил. Русский язык является флексивным языком, то есть в выражении грамматических значений доминирует словоизменение при помощи флексий. Здесь особое внимание стоит уделить склонению (изменению слова по грамматическим категориям рода, числа и падежа). Особые трудности у иностранных обучающихся вызывает система падежей русского языка. Введение для изучения глаголов в конструкцию определяется тем, какое из падежных значений изучается на данном этапе. Для иностранцев большую сложность в изучении русского языка представляет синтаксис, так как в предложении нет строго закрепленного места за тем или иным его членом.

При организации учебного процесса преподаватель должен учитывать вероятные трудности усвоения учебного материала иностранцами и уделять каждой проблеме особое внимание, чтобы иностранные обучающиеся могли в полной мере использовать усвоенный материал в коммуникативной сфере.

Литература:

1. Власова Н. С. Русский язык как иностранный. –М., Типография Гутенберг, 2009.
2. Стародумов И. В. Опыт методики преподавания русского языка как иностранного // Педагогика высшей школы. Международный научный журнал. № 2 (8); «Молодой ученый», Казань, 2017.



DEVELOPING STUDENT'S SPEECH IN ENGLISH LESSONS

*Abdusalomova Dilfuza Erkinovna
She is an English teacher law college in
Karshi district of Kashkadarya region*

Annotation: This article discusses ways to develop speech culture and reading skills in English classes.

Keyword: review, read carefully, get acquainted (need to explain)

We need to identify the role of reading in the formation and development of reading skills in a foreign language and its place in the learning process. It is well known that reading a foreign language has two functions:

1. Reading is the goal of foreign language teaching;
2. Reading is a tool for teaching a foreign language.

In the first case, it is recommended to read aloud, and in the second case, it is recommended to read aloud. It is necessary to teach silent reading in high school, because reading aloud belongs to certain people, such as teachers, actors, speakers. For many, the main goal is to get information while reading. This requires the development of silent reading skills. There are three types of reading when reading a text for information:

- a) Review b) Read carefully c) Get acquainted (need to explain)

The book aims to gain an understanding of the topic. All you have to do is quickly read some paragraphs or sentences in the introduction.

In the "introductory" type of reading, the student reads the text, article, or aims to know the exact content of the book and focuses all his attention (information) focuses on information, which is why this type of reading is sometimes called comprehensive reading.

Reading is a tool for learning a foreign language. Because reading is a form of speaking activity, it can also be an effective tool for teaching a foreign language. For example, it is scientifically proven that language material is better stored in memory when perceived through the senses of sight. Therefore, reading texts at an advanced level (grades 8-9-10) is one of the ways to increase students' vocabulary.

There are two types of reading comprehension,

1. Optional ("acquaintance" - oznokomitelye chtenie)

2. In "gifted" attention, students' attention is consciously focused on a specific task focused. For example: not only to the content, but also to the language units that express it are also focused.

Extensive (content only) and intensive (language from content) in the methodological literature material) reading texts are selected. Reading a foreign language helps to create a "language experience". Reading also helps to develop oral communication. For example, all analyzers involved in silent and aloud reading are involved. Reading aloud is especially important. For example:

- 1) In the development of pronunciation;
- 2) It is a valuable exercise in building speaking skills. (see signals are converted into audio signals).

Which aspect of mental activity (operations) during reading read according to orientation

- a) analytical
- b) synthetic types
- c) without translation
- d) differs in translation.

Using a dictionary, depending on the nature and level of support provided to students and reading without a dictionary is different. Types of prepared and unprepared forms of study, depending on the form of organization:

1. Types of study in the classroom and at home.
2. Read the teacher's assignment.
3. Read on your own.
4. Frontal reading (everyone reads the same text).



5. Individual reading.

The texts selected for reading take into account the interests and age of the students should be selected.

Books

1. Рогова Г.В. Методика обучения английскому языку. М., Просвещение,, 1977
2. Xoshimov U. X va Ekubov I. Y. —Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T. “O‘qituvchi” 1995.



ONA TILI FANINING INTEGRATSIYA ASOSIDA OLIB BORISH

*Azimova Malika Mamatovna
Marg'ilon shahar 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Ona tili fani ya'ni tilshunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro hamkorlikda olib borishning ahamiyati xususida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zalari: ona tili, matematika, kompyuter lingvistikasi, integratsiya. "Mening tasavvurlarim chegarasi ona tilimni bilishim chegaralarida tugaydi", degan ekan mashhur nemis mutafakkiri. Darhaqiqat, olam sirlarini anglashda ona tilining o'rni beqiyos. Shu ma'noda olamda hech bir fan yo'qki, o'z xususiy masalalarini o'rganishda til boyliklaridan so'zlardan foydalanmagan bo'lsa. Shu sababli bugungi kunda fanlar integratsiyasi asosida har bir fanning o'zlashtirilishida undagi qoidalar va tushunchalarni ifoda etish masalalari kun tartibidan keng joy egallamoqda.

Bunda mutaxassis-o'qituvchi birinchi navbatda o'z fanining nazariy asoslarini mukammal bilgani holda muayyan tilda ularni ifoda etish malakasiga ham ega bo'lishi zarur. Bu esa navbatida fanlar o'rtasida integratsiyani vujudga keltiradi. Bugungi kunda fan olamida maydonga kelib rivojlanib borayotgan yangi sohalardan biri matematik lingvistika yoki kompyuter lingvistikasidir. Bunda aynan matematika va tilshunoslik fanlari o'zaro hamkorlikka kirishadilar. Kompyuter lingvistikasi bo'yicha matn tuzish va uni tahrir qilish dasturlarini yaratishda ham matematika-informatika fanlari qonun-qoidalari va amallarini, ham tilshunoslikka oid bilimlarni ishga solishga to'g'ri keladi. Sir emaski, hozirgi kunda matnlarni boshqa tilga o'girishda "Clovar Translite", "Google Prome" kabi juda ko'p AKT tarjima dasturlaridan foydalanamiz. Bu maqsadimizga tez vaqt ichida oson erishishimizni ta'minlaydi. Bundan tashqari bu jarayon o'quvchilarning ona tili bo'yicha bilimlarini mustahkamlash, amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish bilan birga chet tillariga xos til sistemasi va gap qoliqlarining tuzilishini o'rganishiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bugungi kunda katta qiziqish bilan o'rganilayotgan ingliz tili gap tuzilishi sistemasi o'zbek tili gap tuzilishidan farq qiladi. Ziyrak o'quvchi bu dasturlardan foydalanar ekan, tarjima jarayonida matnlarda bo'layotgan o'zgarishlarni sezadi va har ikkala tilning grammatik qoidalari hamda lug'at tarkibiga tegishli bo'lган bilimlarni egallaydi. Masalan, o'zbek tilida gap tarkibida bo'laklar ketma-ketligi "ega-to 'ldiruvchi-kesim" tarzida tartiblansa, boshqa tillarda gap bo'laklari joylashuvi bunday emas. Masalan, ingliz, rus va yana bir nechta boshqa tillarda ular "ega-kesim-to 'ldiruvchi" holatida gap hosil qiladi. O'quvchi tarjima jarayonida ularning o'rin almashganini sezadi va o'zining nazariy bilimlarini amaliyotdag'i isbotini ko'radi.

Ammo ahvol shundayki, dasturlarni ko'pincha informatika va dasturlash ishlari bo'yicha mutaxassislar yaratadilar va uning bazasini ham o'zları to'ldirishga harakat qiladilar. Tabiiyki, ularning bilim darajasi soha mutaxassisi darajasida bo'lmaydi. Til bo'yicha yuqori bilim va salohiyatga ega bo'lган mutaxassislar esa dasturlash ishlari qiyinchilik sezishadi, kompyuter bilan "tillashish"ga qiynalishadi. Ko'rindaniki, maqsadga yetish, ya'ni tillardan foydalanishda mukammal elektron dasturlarga ega bo'lish uchun har ikki soha informatika hamda tilshunoslikda yetarli bilim-salohiyatga ega bo'lish, boshqacha qilib aytganda, fanlar integratsiyasiga erishish talab qilinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mavlanova K. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini integratsiyalash asosida o'rgatish metodikasi. – T.: 2016
2. Abdiyev M., Safarov P. Noan'anaviy dars shakllari. –S.: 1996
3. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: 2013



NEMIS TILI RIVOJI

*Maxmudova Yoqutxon Xamdamovna
Farg‘ona shahar 10- mактаб
nemis tili fani o‘qituvchisi
e-mail:yoqut@inbox.uz*

Annotatsiya: maqlada chet tili fanining o‘qitilishi va rivoji, nemis tili faniga bo‘lgan qiziqishni oshirish, tilning mavqeini tiklash, rivoji uchun amalga oshirish lozim bo‘lgan ishlar xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: darslik, til ko‘nikmasi, mutaxassis, samara

Nemis tili fanining o‘qitilishi xususida turli fikrlar mavjud. Chet tili sifatida mavqeini saqlab qolish uchun esa bir qancha ishlarni amalga oshirish lozim. Bu borada O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti hamda O‘zbekiston Milliy universitetidan nemis tili o‘qituvchilar seminarlar tashkil etib bormoqda. Tashkil etilayotgan seminarlarda turli tashkilotlar fanning rivoji uchun o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Yaqinda tashkillangan seminar-treningda ham Germaniyadagi Logan Gutenberg Mayns universiteti (Johannes Gutenberg-Universität Mainz) dotsenti Marion Grein (Dr. Marion Grein) o‘z ma’ruzasida nemis tilining mavqeい va tilning riviji borasida bir qator vazifalarni sanab o‘tdi.

Nemis tili fani oldida turgan vazifalar bo‘yicha tashkillangan ushbu ilmiy-amaliy seminar davomida ishtirokchilar Germaniyada chop etilgan yangi daslik va o‘quv qo‘llanmalar hamda ularni dars mashg‘ulotlariga joriy etish, ularning shu davrgacha amalda bo‘lgan darsliklar bilan o‘xhash va farqli jihatlari, o‘quvchilarning til bilish ko‘nikmalari, xusan, talabalarning nemis tilidan og‘zaki va yozma bilim ko‘nikmalarini rivojlantirishda mazkur qo‘llanmalarining roli, xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonlariga yangicha yondashuvlar, dars mashg‘ulotlarini o‘qitishning ilg‘or innovatsion texnologiyalari, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida qiziqarli shaklda tashkil etish, til o‘rgatishda muammoli yondashuvning ahamiyati kabi bir qator muhim masalalarni keng muhokama qildilar. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, dotsent Marion Grein xonim – Germaniyaning Mayns universitetida nemis tilini chet tili ikkinchi til sifatida o‘qitish bo‘yicha magistrlik dasturining rahbari. U qiyosiy tilshunoslik (ingliz, nemis, yapon tillari) va katta yoshlilarni nemis tilini chet tili sifatida o‘rganishga ixtisoslashgan tilshunos. U tadqiqotlarini til va nevrologik sohalarda olib borgan. Talabalar va katta yoshdagi o‘quvchilarda tilni o‘qitish nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha bir qator kitoblar, shuningdek, nemis tiliga oid darsliklar nashr ettirgan. Hozirda til o‘rganish usullari va o‘qitish uslublari, shuningdek, mashg‘ulotlarda raqamli va internet texnologiyalarni qo‘llash ustida ish olib bormoqda. Germaniyalik olima nemis tili o‘qituvchilar bilan o‘zining til o‘rgatishdagi tajribalari, universitetda, o‘zi tashrif buyurgan mamlakatlarda shunday treninglar chog‘ida o‘rgangan ko‘nikmalari xususida o‘rtoqlashdi. Dotsent Marion Greinning ta’kidlashicha, u dunyoning 15 mamlakatida bo‘lgan. O‘zbekistonga ilk bora 2009-yilda ilmiy anjumanda ishtirok etish uchun kelgan. 2010-yilda ham Toshkent va Samarqandda nemis tili o‘qituvchilar uchun mahorat darslari, seminar-treninglar tashkil etgan.

Seminar-trening davomida, shuningdek, universitetlar professor-o‘qituvchilar Germaniyada “Hueber” nashriyotida so‘nggi 2018-2019-yillarda nemis tilini xalqaro CEFR darajalarida o‘qitish maqsadida chiqarilgan va “Motive”, “Sicher” kabi so‘nggi nemis tili qo‘llanmalarida til o‘rganuvchilarning o‘qish va yozma nutqini rivojlantirish maqsadida berilgan topshiriqlarning sifati, samaradorlik darajasi, mashqlarni real hayotiy vaziyatlar bilan ham bog‘lagan holda rolli o‘yinlar va interaktiv usullar yordamida tashkil etish bo‘yicha o‘zaro fikr almashdilar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugun O‘zbekiston barcha sohalarda jahonning rivojlangan davlatlari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Shu jumladan, ta’lim sohasida ham Germaniyaning ko‘plab universitetlari davlatimizdagi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari va memorandumlar imzolashgan. Xorijiy ekspertlar bilan tashkil etiladigan bu kabi anjumanlar, mahorat darslari ana shunday do‘stlik aloqalarini mustahkamlabgina qolmasdan, yurtimiz



yoshlarining xorijiy tillarni aynan chet elda nashr etilgan va so‘nggi yutuq hamda tajribalarni o‘z ichiga olgan kitoblardan foydalangan holda o‘qishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Maktab ta’limi jarayonida ilmiy-amaliy seminarlarning ahamiyati katta. O‘qituvchining faoliyatini samarali tashkil etishda metodik tavsiyalar va metodik qo‘llanmalarni ish faoliyatida qo‘llash esa fan rivoji uchun muhim omildir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. <http://xs.uz/uz/post/>
2. Qahhorova M. Nemis tilini o‘qitish metodikasi, 2011.
3. Ziyonet/uz



ONA TILI DARSLARIDA O'QITUVCHIDAN TALAB QILINADIGAN PEDAGOGIK MAHORAT

*Mirzaqulova Gulbahor Ashurovna
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumani
32-umumi o'rta talim maktabi
ona-tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning eng samarali metod, vosita va usullarini qo'llash orqali o'quvchida tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilish hamda ona tili mashg'ulotlarining samaradorlik darajasi xususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'quvchi e'tibori, ijodiy faoliyat, reproduktiv tafakkur, ijodiy tafakkur, qayta xotirlash.

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan bugungi kunda haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standartlarida barcha umumta'lim fanlarining o'qitilishini tubdan yaxshilash kuzda tutilgan. Ta'lim-tarbiya muassasalarining asosiy bo'g'ini hisoblangan umumta'lim maktablarida ona tili o'qitilishini tubdan yaxshilashni, ta'limning eng samarali metod, vosita va usullarini qo'llashni, muhumi o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni talab etadi.

Ona tili mashg'ulotlari shunday olib borilmog'i lozimki, har bir o'rganiladigan til hodisasi o'quvchi e'tiborini o'ziga qaratsin, uni ijodiy faoliyat ko'rsatishga undasin, o'zligini namoish etish imkoniyatini yaratsin. Mashg'ulotlar o'quvchilarini ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatlarini anglab, mustaqil fikrlashga va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoish etish, o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratsin. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil yengish, boshlangan ishni nihoyasiga etkazish kabi fazilatlarni tarkib toptirish o'qituvchi zimmasidagi dolzarb masaladir. Bir soatlik dars mashg'ulotlarida o'qituvchi o'rni kelganda reproduktiv tafakkurga, o'rni kelganda ijodiy tafakkurga tayanib ish ko'rmog'i maqsadga muofiq bo'lar edi. Bu esa o'z o'rnida umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarimizdan o'tilayotgan dars mavzusi qamrovini to'g'ri baholagan holda o'quvchilarning yosh xususiyati, bilim saviyasidan kelib chiqib ish ko'rmoqlikni talab qiladi. O'quvchilarning mashg'ulot samarasini kuzatash, tekshirish jarayonida o'qituvchi, o'quvchi kamchiligi, izlanganligidan dalolat ekanligi, agar izlanmaganida mutlaqo bu mashg'ulotni o'zlashtirolmasligi mumkiligini ta'kidlab, baholashi ham muhim masala, aslida. Chunki, aksariyat hollarda, mashaqqat bilan bajarilgan mashg'ulot, ko'ngildagidek samara bermasa, o'quvchi

rag'batlantirilmasa fanga nisbatan qiziqish so'nishiga sabab bo'ladi. Sinf xonasidagi har bir o'quvchi nazoratdan chetda qolmasli kerak. Bu vaziyat o'qituvchidan katta pedagogik mahorati talab etadi. Har bir o'quvchining bilim samaradorligini nazorat qilishda ulgurishi, og'zaki "tezkor test", "tezkor savol-javob" yoki o'yin topshirqlardan qay darajada foydalanishiga bog'liq.

Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan

- muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

- o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

- o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.



Bunday o‘zgarishlar har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi sa’y-harakatlarni kuchaytirishga muhim asos bo‘ladi.

Bu kelgusida yuqori malakali va raqobatbardosh, kompetentli utaxassiskadrlarni tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

Ona tili ta’limi jarayonida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, so‘zdan nutqda to‘g‘ri va aniq foydalanish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga oid o‘yin va topshiriqlardan keng foydalanilsa, kata mavzular va bo‘limlar o‘rganilgandan keyin takrorlash mashg‘ulotlari “Topqirlar bellashuvi” asosida o‘tkazilsa, ona tili darslarida qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlar bilan ijodiy va ijodiy xarakteridagi topshiriqlaro‘rtasida mutanosiblik vujudga keltirilsa, tashkil etiladigan o‘yin-topshiriqlarning biri ikkinchisini to‘ldirishga qaratilsa, ona tili mashg‘ulotlarining samaradorlik darajasi yuqori bo‘ladi.1 Ona tili darslarini o‘tish jarayonida, o‘yin vaziyatlarini yaratish, har bir o‘quvchi uchun tezkor test yoki savollar berish, takrorlash mashg‘ulotlarini muntazam ravishda “Topqirlar bellashuvi” tarzida o‘tkazish, bunday bellasuvlarni sinflar kesimida tashkil etish, o‘yin-topshiriqlar tuzishga o‘quvchilarning o‘zlarini ham jalb qilish, topshiriqlarni bajargan o‘quvchini o‘zlashtirish saviyasiga qarab rag‘batlantirib borish maqsadga muofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobomurodova A. Ona tili ta’limi jarayonida o‘yin-topshiriqlardan foydalanish. Toshkent-2009. 4-bet.
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. Toshkent, 2017 y
3. Mengliyev B. Ijtimoiy buyurtma va til tadqiqi hamda ta’limi. Toshkent , 2011 y



O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARINI YANADA MURAKKAB MATNLARGA QIZIQISHINI QO'LLAB-QUVVATLASH.

*Mukarramova Ra'no Davlatovna
Namangan viloyati Namangan shahar
71-umumiy o'rta ta'lim maktabining
1-toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

Annotatsiya. Ko'pincha yoshlar, oxirgi marta qachon kitobni yaxshi ko'rghanligini so'rashganda, boshlang'ich maktabdagи давра yoki ovoz chiqarib o'qish vaqtini, ota-onalar yoshligida o'qigan yotish haqidagi ertaklarini yoki masalan, sevimli serialarga muhabbat qo'yganlarini eslashadi. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar ko'pincha rasmiy kitoblarni o'qishdan, bob kitoblari va turkumlarini o'qishga o'tishdan katta g'ururlanishadi.

Kalit so'zlar: o'qish, qiziqish, qobiliyat, kompetensiya, vositalar, o'rganish.

Agar bizning maktab tizimimizda bitta maqsad bo'lishi kerak bo'lsa, bu o'quvchilarga tug'ma qiziqish va ular o'rganayotgan mahorat va mazmundan faxrlanish tuyg'usini his qilishda yordam berishdir. Afsuski, ko'plab o'quvchilar maktabni o'qishga bo'lgan muhabbatini yo'qotib maktabni tugatmoqdalar. Ular stipendiya nimaga o'xshashligini tushunishadi, lekin doimo qiziqish olovini yoqish va shu olovni boqishni davom ettirish uchun o'rganish nimani anglatishini juda kam bilishadi.

O'rta maktab sinflarda ko'plab o'quvchilar o'qish identifikatsiyasini aniqlashning birinchi usullaridan biri o'qituvchilarga o'quvchi sifatida o'sish uchun nima zarurligini aniqlash uchun o'qituvchilarni baholashda berilgan ballardir. Biroq, o'quvchilar ushbu baholarning maqsadini tushunmasliklari va savollarga o'zlarining haqiqiy o'qish kuchli va qobiliyatlarini oshkor qilmaydigan tarzda javob berishlari odatiy holdir.

Agar o'quvchilar bilan tezlashtirilgan o'quvchi yoki leksika darajasidan ko'proq o'qish qobiliyati yoki mahorat darajasi to'g'risida suhbatlashishni normallashtirsak nima bo'ladi? Matnning murakkabligini o'zi aniqlagan ko'rsatkichlar kombinatsiyasidan foydalangan holda o'qish yutuqlari uchun o'z darajalarini yaratgan bo'lsalar-chi? Masalan, o'qituvchilar va o'quvchilar Google rubrikalari yordamida bиргаликда o'qish murakkabligi uchun sifat (ma'no qatlamlari, til konvensiyalari), miqdoriy (so'z va jumla uzunligi) va o'quvchiga xos (oldindan bilim talab qilinadi) ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan rubrika yaratishi mumkin.

O'quvchilar o'sishni o'lchash uchun turli xil vositalardan foydalanishlari mumkin, masalan, jurnal o'qish yoki baliq qushlarini muhokama qilish paytida bиргаликда yozuvlar. O'qituvchilar standartlarni va o'quv maqsadlarini o'quvchilarga qulay tilda o'zgartirib, ularni Google Formalariga qo'shishlari mumkin, shundan so'ng o'quvchilar ko'nikmalar va mashg'ulotlar o'rtaidagi bog'liqlikni aniqlashda va o'lchovli maqsadlarni belgilashda foydalanishi mumkin. So'ngra o'qituvchilar o'quvchilarga mustaqil va jamoaviy ravishda bilim olish imkoniyatini berish maqsadida bиргаликдаги izohlash yoki bиргаликда yozib olish kabi vositalarni sinf ichidagi munozaralar paytida qo'llashlari mumkin. O'qish haqidagi yozuvlarni to'playdigan aks ettirish jurnallari va portfellari o'sishni o'lchash uchun o'quvchilarning o'zini o'zi baholash usulidir.

Ko'p o'rta sinf o'quvchilari mualliflarga yoki kitoblar turkumiga muhabbat qo'yadilar, bu esa boshlang'ich maktabda sevib qolgan bob kitoblaridan tashqari o'qish ravonligini oshirish uchun ishlaydi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan ish olib borishi mumkin, ular qiziqishlariga mos keladigan kitoblar turkumini aniqlash uchun boshlang'ich maktabdan boshlab ommabop bob kitoblarini ko'rib chiqish va mavzu va janr haqida ma'lumot berishlari mumkin. Masalan, agar o'quvchi "Origami Yoda fayllari" ni yoqtirsa, ular o'qituvchisi bilan bиргаликда ushbu kitoblar uchun janr tasnifiga mos keladigan, ammo uzunroq yoki leksile darajasidan yuqori bo'lgan kitoblarni aniqlashlari mumkin.

O'qituvchilar o'quvchilarni mактаб va sinf kutubxonalarining belgilanishi va rasmiy kitob, erta o'quvchi, bob kitobi, yosh kattalar va kattalar kabi toifalarga mos keladigan kitoblarning xususiyatlari bilan tanishtirishlari mumkin. O'quvchilar ushbu toifalarning har birida kitoblarning xususiyatlarini aniqlagandan so'ng, ular o'zlariga yoqadigan janrlardan qiziqish sarlavhalarini topishlari mumkin, bu ularga matnning murakkabligi darajasida organik ravishda o'tish nimani anglatishini osonlashtiradi. O'qituvchilar ularni baholash uchun Google rubrikalari kabi vositalar



yordamida murakkablik ko'rsatkichlarini aniqlashda ularni qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Kitoblarni toifalarga ajratish kitob xaridorlari va kutubxonachilar uchun foydalidir, ammo o'quvchilarga barcha kitoblar barcha o'quvchilar uchun ekanligini tushuntirish zarur, shuning uchun tekislash va yoshga moslik atrofidagi keraksiz zararli tamg'alar olib tashlanadi. Odadta kitobxonlar gravitatsiya qilishlari va kitoblar bilan yoqimli tajribalarga ega bo'lishining turli sabablari bor. Ko'pincha o'quvchilar zararli tilni o'zlashtiradilar, agar ular kompyuterda ishlab chiqarilgan yoki davlat tomonidan aniqlangan Lexile darajasi ostida bo'lgan kitoblarni o'qishni yoqtirishsa, ulardan uzoqlashishlari kerak, bu albatta bunday emas. Maqsad o'sishni doimo zulm bilan emas, balki kuch bilan o'sish orqali rag'batlantirishdir.

Biz bilamizki, o'quvchi sifatida o'sish ko'nikmalarni aralashtirishni talab qiladi. O'quvchilar o'zлari bilmagan so'zlarni o'qish va aniqlash uchun kontekstli maslahatlar yordamida ravon o'qishni rivojlantirish va so'z boyligini oshirish nimani anglatishini yanada chuqurroq anglashar ekan, o'qish pillapoyalari kabi vositalardan o'zлari uchun qaysi kitoblar o'zlarini qulay his qilishlarini yaxshiroq ko'rishlari mumkin. va tabiatan qiziquvchan bo'lgan va qo'yib bo'lmaydigan kitoblarni o'qiyotganda ichki motivatsiyani maksimal darajada oshirish.

Ota-onalar o'quvchilar uyda o'qiydimi yoki yo'qmi, darvozabon bo'lishni to'xtatganda, o'qituvchilar o'quvchilarning o'sishiga yordam berish uchun o'qish va murakkablikni qidirib turish uchun o'qituvchilardan ko'proq narsalarga ehtiyoj bor. Ko'plab boshlang'ich o'qituvchilar foydalanadigan vositalarni, masalan, tekislash, o'qishni baholash va o'qish jurnallari, o'rtal sinf o'quvchilari uchun mustaqil ravishda o'qish odatlari va didlarini rivojlantirgani uchun ularni bekor qilish mumkin.

Shu bilan birga, ushbu vositalarni o'quvchilar bilan birlgilikda o'qish ravonligini aniqlash va matnning murakkabligini kuzatish usullarini ishlab chiqish bilan almashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilar o'qishni haqiqiy usullar bilan baholash jarayonida ishtirok etishlari va turli janrlar va formatlarda o'qishga umrbod muhabbatni rivojlantirishlari mumkin.

O'quvchilar o'zlarining qiziqishlari bilan ko'proq tanishganliklari sababli, o'quvchilar uchun kitob klublari va kitobxonlik guruhlari foydali bo'lishi mumkin va ular uchun mavjud bo'lgan kitoblarning xilma-xilligi o'zlarining dunyosi chegaralari bilan kengayib boradi, chunki ular uyda tanish bo'lgan narsadan dastlab noma'lum bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarga o'tishadi, masalan, ularning qo'shnilarini, jamoalari, davlatlari va mamlakatlari keng dunyosida.

Har bir o'quvchi chin dildan sevadigan kitobni o'qishdan kelib chiqadigan quvonchni biladi. Bu yozuvchining qanday qilib o'qitishi va ko'ngil ochishi borasida qiziqish, hayajon va hayratning ta'riflab bo'lmaydigan aralashmasi. Yozishni o'rgatadigan o'qituvchilar o'quvchilarni universal haqiqatlarni etkazish va eng samimiy va shaxsiy tajriba yoki hissiyotlarni ochish uchun til yordamida ishslashda qo'llab-quvvatlashga intilishadi.

Buning eng yaxshi usullaridan biri bu o'quvchilarga sevgan kitoblarini o'qish, ularni juda sevish sabablarini ochish va mustaqil ravishda ularni nafaqat o'quvchi va inson bo'lib o'sishga chorlaydigan keyingi kitobni izlashni o'rganishdir nafaqat boshlang'ich matabda, lekin o'rtal sinflarda ham.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jumayev A. Bo'lajak o'qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. "Xalq tailimi" jurnali, 2006
2. Йулдошев Х.К. Баркамол авлодни тарбиялаш оила, махалла ва таълим муассасала-ри хамкорлиги концепцияси. - Т., 2012.
3. **PQ-3271 13.09.2017** "kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ ЎТИШДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

*Дилнавоз Ўроқова
Оқдарё туман 52-ИДУМИ
она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси*

Аннотация: мақолада она тили ва адабиёт фанларини самарали ташкил қилишда инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш хусусида фикрлар берилган.

Калит сўзлари: она тили, адабиёт, инновацион технологиялар.

Мутлақо янгича, мустақил фикрлайдиган, замонавий янгилик ва технологияларни ўзлаштиришга қурби-кудрати етадиган, миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида камол топаётган, маънавий ва жисмоний етук ёшларни тарбиялаш, уларни дарс машғулотлариға қизиқтириш, билим ва савиясини оширишдек эзгу ишларни амалга ошириш мақсадида таълим жараённида инновацион педагогик технологияларини қўллаш бугунги кунда катта аҳамиятга эгадир.

Шу максадда Оқдарё туман 52-ихтисослаштирилган мактаб-интернатида она тили ва адабиёт фанини ўқитишида инновацион таълим технологиялардан мунтазам равишида фойдаланилиб келинмоқда. Биламизки, инновацион таълим технологияларидан фойдаланиб дарс ўтиш қуидаги асосий мезонларни ўз ичига олади:

